2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

UDK: 636.933.2.

QORAKÖL TERILARI ÖLÇAMINING BIRLAMÇI QAYTA IŞLAŞDA ÖZGARIŞI XUSUSIYATLARI

Xojamuratova Rawshanay Rustemovna

Magistrant

Turganbayev Ruzimbay Urazbavich

Ilmiy rahbar, qişloq xöjalik fanlari doktori, professor

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311066

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
332–334

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Xojamuratova R.R., Turganbayev R.U. Qoraköl terilari ölçamining birlamçi qayta işlaşda özgarişi xususiyatlari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 332–334. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311066

ANNOTATSIYA Uşbu maqolada xöjalik şaroitida qoraköl terisini quruq tuzlaş va höl tuzlaş usullarida qoraköl terisi hajmi özgarişining teri rangi bilan boğliqligi aniqlangan va xulosalar berilgan.

KALIT SÖZLAR Xöjalik şaroiti, qoraköl teri, quruq tuzlaş, höl tuzlaş, usullar, teri hajmi, özgarişi, teri rangi, xulosalar.

ABSTRACT This article determines the relationship between changes in the size of Karakul pelts and their color during dry and wet salting under farm conditions, and presents relevant conclusions.

KEYWORDS farm conditions, Karakul pelt, dry salting, wet salting, methods, pelt size, changes, pelt color, conclusions.

Kirish. Qorakölçilik çorvaçilikning çöl va yarim çöl hududlarida rivojlanayotgan muhim tarmoği bölib, uşbu mintaqalardagi yaylovlardan oqilona foydalaniş imkonini beradi. Şu bilan bir qatorda qorakölçilikning ahamiyati rangining xilma-xilligi böyiça öziga xos qoraköl terisini işlab çiqariş imkoniyati, qöy göşti va jun xomaşyolariga bölgan talabni qondirişdir. Şu bois qoraköl qöylarining nasl xususiyatlarini hamda genetik salohiyatini yaxşilaş, mahsuldorligini oşiriş muhim ilmiy-amaliy muammodir.

Ayni paytda dunyoning ellikdan ortiq davlatida qoraköl qöylari urçitilib, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etiş, ularning irsiy salohiyati va qoraköl terisini işlab çiqarişni boşqarişning samarali seleksion-genetik usullarini işlab çiqiş, naslçilik hududlarini yaratiş uçun keng imkoniyatlar yaratilgan.

MDH davlatlarida ham turli rangdagi qoraköl qöylarini urçitiş hamda köpaytiriş böyiça salmoqli natijalarga erişilgan. Bu borada Qozoğiston, Turkmaniston, Tojikiston, Rossiya, Moldova davlatlarida keng qamrovli ilmiy-tadqiqot va seleksiya işlari olib borilib, asosan qora, kök, Buxoro sur qoraköl qöylarining qimmatli seleksion suruvlari yaratilgan. Şuningdek, bozor talablaridan kelib çiqqan holda, rangli qoraköl terilarini işlab çiqariş salmoğini oşiriş va sifatini yaxşilaşga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qorakölçilik sohasi yuqori sifatli qoraköl terisi, göşt va jun mahsulotlari işlab çiqariş bilan birga, çöl hududlarida yaşovçi aholining oziq-ovqat xavfsizligi va bandligini ta'minlaşga xizmat qilmoqda. Özbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida qoraköl qöylari seleksiyasini yölga qöyiş orqali zotini yaxşilaş böyiça keng kölamli çora-tadbirlar amalga oşirildi. Natijada, qoraköl zotining biologik xususiyatlaridan kelib çiqqan holda, uning mahsuldorligini oşirişga va tarmoqda yuqori iqtisodiy rentabellikka erişilmoqda.

Qoraköl terilariga birlamçi işlov beriş ularning sifat körsatkiçlariga bevosita ta'sir qiladi. Xöjalik şaroitida teriga işlov berişning bir neça usullari mavjud bölib, şulardan asosan quruq tuzlaş va höl tuzlaş usullarining qoraköl terisi hajmiga ta'sirini aniqlaş maqsad qilib olindi.

Tajriba joyi. Qoraqalpoğiston Respublikasi Taxtaköpir tumani "Mulk" xöjaligiga qaraşli "Mulk" ilmiy-tajriba stansiyasi.

Tajriba obyekti. Turli rangdagi qoraköl terilari.

Tajriba predmeti. Turli tuzlaş usullari, qoraköl terilari hajmining özgarişi.

Tadqiqotning maqsadi. Turli rangdagi qoraköl terilarini quruq va höl tuzlaş usullarida teri hajmining özgarişini aniqlaşdan iborat.

TADQIQOTNING VAZIFALARI QUYIDAGILARDAN IBORAT

- Turli rangdagi qoraköl terilarining tuzlaşdan oldingi hajmini aniqlaş.
- Tajriba uçun quruq va höl tuzlaş usullaridan foydalaniş.
- Tuzdan çiqqan terilarning hajmini qayta ölçaş.
- Birlamçi qayta işlaş jarayonida teri hajmining özgarişini aniqlaş va xulosalar çiqariş.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarda umume'tirof etilgan zootexnik, biologik, texnologik va statistik tahlil usullari qöllanildi.

Hisoblaş formulalari asosida amalga oşirildi.

Teri hajmining absolyut özgarişi: $Tx\ sm^2 = X_0 - X_1$

Foizda: $Tx\% = (X_0 - X_1) / X_0 \cdot 100\%$

Bu yerda X_0 tuzlaşdan oldingi, X_1 tuzlaşdan keyingi yuza.

Tadqiqot natijalari. Biz öz tadqiqot işlarimizda xöjalik şaroitida qoraköl terisini birlamçi qayta işlaş usullaridan foydalangan holda, ularning hajmi özgarişining terilar rangi bilan boğliqligini aniqlaş va tahlil qiliş orqali xulosalar berişni maqsad qildik. Şu bois, biz asosan quruq tuzlaş va höl tuzlaş usullarida teri hajmining tortilişini ranglar kesimida aniqladik va olingan tajriba ma'lumotlari quyidagi 1-jadvalda umumlaştirildi.

1-jadval. Birlamçi qayta işlaşdan oldingi va keyingi qoraköl terilari hajmining tuzlaş usullariga boğlik holda özgarişi, sm^2.


Teri rangi	n	Birlamçi qayta işlaşdan oldingi ölçami, sm^2	Birlamçi qayta işlaşdan keyingi ölçami, sm^2	
			Quruq tuzlaşda	Höl tuzlaşda
			X±Sx, sm^2	
Qora	10	1124,4±9,5*	1035,6±7,9*	1073,8±6,7*
Sur	10	1252,2±10,6*	1148,3±8,5*	1188,3±7,6
Kök	10	1087,3±8,5**	990,5±6,4**	1026,4±7,1**
Örtaça	30	1154,3±9,6*	1057,4±7,1*	1095,4±7,5

*P <0,05., **P <0,01.,

1-jadvalda umumlaştirilgan ma'lumotlardan şuni tahlil qiliş mumkinki, birlamçi qayta işlaşdan oldingi hajmi qora rangli qoraköl terilarida 1124,4 sm2 bölgan bölsa, quruq tuzlaşda 1035,6 sm2 va höl tuzlaşda esa, 1073,8 sm2 ni taşkil qildi (P <0,05). Uşbu körsatkiç sur rangli terilarda şunga mos ravişda 1252,2 sm2; 1148,3 sm2 va 1188,3 sm2 ni taşkil qildi (P <0,05). Kök rangli qoraköl terilarida 1087,3 sm2 bölgan bölsa, quruq tuzlaşda 990,5 sm2 va höl tuzlaşda esa, 1026,4 sm2 ni taşkil qildi (P <0,01).

Umuman xulosa qilib aytiş mumkinki, qoraköl terilarining tortilişi, ya'ni hajmini kiçraytirişi rangi bilan boğliq holda, qora rangli terilarda yuqori körsatkiç qayd etildi.

Birlamçi qayta işlaşdan oldingi hajmi 100 % ga qabul qilinsa, birlamçi qayta işlaşdan keyingi hajmi qora, sur va kök rangli terilarda quruq tuzlaşda va höl tuzlaşda olingan natijalar quyidagi 1-rasmda umumlaştirildi.



1-rasm. Birlamçi qayta işlaşda teri hajmining yöqotişlari, % da

1-rasmda umumlaştirilgan ma'lumotlar tahlili şuni körsatdiki, quruq tuzlaşda qora rangli terilar hajmining yöqotişi biroz yuqori bölib, 7,9 % ni (P <0,05) va höl tuzlaşda 4,5 % ni taşkil qilgan holda, sur rangli qoraköl terilarida uşbu körsatkiç 8,3 va 5,1 % ni taşkil qildi. Kök rangli terilarda uşbu körsatkiç şunga mos ravişda 8,9 va 5,6 % ga teng böldi (P <0,05).

Umuman barça rangdagi örtaça körsatkiç quruq tuzlaşda 8,3 % va höl tuzlaşda 5,1 % ni (P <0,05) taşkil qildi.

Xulosa. Birlamçi qayta işlaşda teri hajmining yöqotişlari böyiça şuni ta'kidlaş mumkinki, yöqotişlar teri rangiga boğliq holda, tuzlaş usullariga ham bevosita boğliqdir. Höl tuzlaşda teri hajmi kamroq yöqotişga va aksinça quruq tuzlaş usulida esa köproq yöqotişga uçraydi. Qora rangli qoraköl terilarda sur va kök rangli terilarga nisbatan kamroq yöqotişlar kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. Gaziyev A., Rizayeva D. "Seleksiyalaşda olingan qora qoraköl teri mağzining qalinligi, mustahkamligi va belgilarning korrelyatsion boğliqligi". "Çorvaçilik va naslçilik işi" jurnali, №3 (20), 2021-yil, 31–32-betlar.
2. Ismailov M.Ş. va boşqalar. "Qoraqalpoq zot tipidagi pölati sur qoraköl qöylari va ularning mahsuldorlik xususiyatlari" // Çorvaçilik va naslçilik işi. – 2020. – № 3 (14). – B. 26-27.
3. Турганбаев Р.У. "Каракалпакский породний тип каракулских овес окраски сур." Монография. Тошкент, 2012. – 164 б.

 https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311066